

PEDAGOGIKADA NAFOSAT TARBIYASI MASALASI

*Abduqodirova Sabina Maxmudjon qizi**Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti*

Annotatsiya. Bu maqolada nafosat tushunchasi va pedagogikada nafosat tarbiyasi masalalari haqida darslik, qo‘llanmalarda talqin etilishi, uning muhim ahamiyati manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: nafosat, voqelik, tarbiya, estetik, go‘zallik

Nafosat bir tomonlama, real voqelikni, ikkinchi tomondan ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma’naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o‘z ichiga olgan eng yirik istiloh, ovropacha ta’rifda metakategoriya. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, nafosatning «hududi» nihoyatda keng, u obyektiv voqelik sifatida narsa-hodisalarning estetik xususiyatlarini anglatasa, subyektiv voqelik tarzida insonning ana shu estetik xususiyatlarini anglash va idrok etish borasidagi botiniy faoliyatidir¹. Shunday ekan, pedagogika, ya’ni ta’lim-tarbiya uchun ham nafosat zarurdir.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya) bu o‘quvchilarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Bilamizki, nozik didli bo‘lish, go‘zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, xullas, o‘z hayotini go‘zallik qonunlari asosida ko‘ra olish — komil insonning eng zaruriy fazilatidir.

Insonda go‘zallikni tushunish birdaniga vujudga kelmaydi, balki u jamiyat va odamlar, atrof-muhit ta’sirida shakllanib boradi. Shunga ko‘ra insoniyatning badiiy rivojlanish qonunlari ijtimoiy rivojlanish qonunlari bilan bog‘langan. Badiiyat qonunlari esa ijtimoiy-estetik ideallar orqali namoyon bo‘ladi.

Nafosat tarbiyasi, eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg‘ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Bunday yuksak nafosatlilik aql-zakovatdan xoli bo‘ladi, degan ma’noni tushunmaslik kerak. Shaxsning barkamol inson bo‘lib shakllanishida bu ikki tomon bir-birini to‘ldiradi. Chinakam san’at asarida hissiyot chuqur g‘oyaviy aqliy mazmun bilan birikib ketadi. Nafosat tarbiyasi aql bilan hissiyotni tarbiyalash, yanada aniqroq, qilib aytganda, hissiyot vositasi bilan aqlni tarbiyalashdir. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

¹ Abdulla Sher, Husanov B., Umarov E. Estetika. – Toshkent, 2000. – B.91

Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma'naviy boyib, olijanob bo'lib boradi, uning hayoti yanada sermazmun bo'ladi, yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbat ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi. Chinakam nozik did haqiqiy go'zallikdan lazzatlana olish, mehnatda, turmushda, yurish-turishda, san'atda, shuningdek, pedagogik faoliyatda ham nafosatni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir. Didsizlik kishining voqelikka bo'lgan ijobiy munosabatini buzib yuboradi, natijada u nafosatga loqayd qaray boshlaydi.

Nafosat tarbiyasi bugungi kunda mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda va ta'lim-tarbiyada har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolmoqda. Did-farosat har bir insonning xatti-harakatida, kiyinishida, yurish-turishida, kishilarga bo'lgan munosabatida, jamiyatdagi u yoki bu voqealarga yondoshishida va hokazolarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ba'zan hayotda didi past, ma'naviy qashshoq kishilarni uchratamiz. Bunday kishilar aqlan, axloqan va ruhan zaifligini yashirish uchun soxta xatti-harakatlar qiladilar, o'zlariga yarashmaydigan ishlar qiladilar, didsiz kiyinadilar, ma'ni-matrasiz, shovqin-surondan iborat musiqa va ashulalarni tinglaydilar. Bundaylarni kuzatarkansiz, ularning mehnat gashtini surmagan, hayot tashvishlariga beparvo, loqayd kimsalar ekanligiga guvoh bo'lasiz².

“Agar kishini turmush ustozini dono qilmasa, hech dono unga so'z o'rgatmoq uchun ovora bo'lmasinki, mehnati zoye ketadi”, - deydi Kaykovus. Demak, kishini tarbiyalashda hayotiy ta'sirning roli Kaykovusning diqqatidan chetda qolmagan. Yana u tarbiyani inson aqlini, shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Uning fikricha, dunyoni bilishdan maqsad undan foydalanishdir. Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, suratlar dastlabki estetik kechinmani keltirib chiqaradi.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, avvalo, ularning «ko'rish», «eshitish», tabiat ko'rinishlari, atrof-muhitdagi go'zallikni ajrata bilish va baholash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, musiqali o'yin, rasm solish, haykalchalar yasash mashg'ulotlari keng qo'llaniladi. Nafosat tarbiyasi aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq.

Nafosat tarbiyasi yosh avlodning axloq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. San'atga ehtiyojni, uni tushunishni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O'z navbatida san'at ham biror maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Nafosat tarbiyasi ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek

² Qarang: Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent, 2001. –B. 381-383

muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi.³

Estetik tarbiya shaxsning estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liqdir. Nafosat tarbiyasi vositalari deb, shaxsning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz. Nafosat tarbiyasi omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy va shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari nafosat tarbiyasi vositalari vazifasini o'tashi va aksincha bo'lishi ham mumkin.

Yoshlarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar shakllantiriladi.

Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi. Xalq pedagogikasi estetikaning «go'zallik ~ hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go'zallikda ishtirok etishini, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Nafosat tarbiyasi — o'quvchining estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashini o'z ichiga oladi.

Barcha narsa juft-juft bo'lib yaratilgan ekan, juft bo'lib yashash tabiat taqozosidir. Lekin oila bo'lib yashash barcha mahluqot orasida faqat odam nasliga xosdir. Yer yuzida birinchi oilani Odam Ato bilan Momo Havo tuzishgan. Ular uzoq ayriliqdan Iceyin bir-birlarini juda sog'inib qolishgach, diydor ko'rishganlar. Muhabbat tarixi ham birinchi otamiz va birinchi onamizdan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Muhabbat juda qadim narsa, lekin har bir yurak uni yangilaydi.

Oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, buquqiy, axloqiy, ruhiy aloqalar bilan bog'lanadi.

Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari ko'p. Shu bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha nikoh – ilohiy ahd, oila – muqaddasdir. Nafosat tarbiyasi

³ Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. –Toshkent, 2013. –B. 138-139

masalalari va estetikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlarining eng muhim qismidir.

Forobiy o'zining estetik qarashlarida inson shaxsini g'oyat ulug'laydi. Insonni «ojiz banda», «hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudot» darajasigacha yerga uruvchi hukmron aqidalarga zid o'laroq, mutafakkir nazarida inson eng oliy kamolot bo'lib, «aql-idrok ziyosiga ega» o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni yaratishga qodir borliqdir. Agar inson faqat o'zi uchungina mehnat qilsa, u aytaylik, atoqli olim, buyuk donishmand, ajoyib shoir bo'lishi mumkin, ammo hech qachon chinakam mukammal va ulug' inson bo'la olmaydi.

Bular o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berishdan iborat. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalari quyidagilardir:

- badiiy adabiyot, tabiat, mehnat;
- insonlarni o'rab turgan muhit, turmush estetikasi;
- tabiat manzaralaridan olingan taassurotlar;
- san'at asarlari;
- o'quvchilarning tasviriy faoliyatlari;
- bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar, urf-odatlar, an'analar;
- ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar.

Bunday ta'lim-tarbiya va go'zallik muhiti insonlarning har tomonlama kamol topishiga, pedagogik faoliyatda estetik didlarning tarbiyalanishiga yordam beradi.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning ma'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiylikini ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- go'zallik – bu kishining qalbi go'zalligi;
- go'zallik – bu kishining istarasi issiqligi;
- go'zallik – bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi;
- go'zallik – bu bamisoli daraxt, yaprog'i – axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat.

Odam bolasidagi go'zallik – tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat (Mirzakalon Ismoilij). Demak, estetik tarbiya nafosat tarbiyasi ham, odamiylik tarbiyasi ham, to'la-to'kis ahamiyatga ega bo'lgan go'zallik tarbiyasidir. Shu sababli talaba-yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash g'oyat murakkab, ko'p qirrali dinamik jarayon bo'lib, uning yordamida barkamol shaxs tarbiyasi jarayonini olib borishning optimal variantlarini qo'lga kiritish mumkin.

Nafosat tarbiyasi – o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning

ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotiga go‘zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir".

Talaba-yoshlar nafosat tarbiyasining mazmuni asosan:

- nafosatga qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;
- nafosat tarbiyasida bilimdonlik;
- nafosatga oid ko‘nikma va malakalarning shakllanganligi;
- nafosatga xos his-tuyg‘uning mukammalligi;
- o‘z mehnatidan zavq ola bilish va natijani baholay olish qobiliyatlarining, hissiyot va qobiliyatlarining mavjudligi;
- go‘zallikka intilish va didlarni tarbiyalashga erisha olishlik kabi insoniy xislatlar majmualaridan iboratdir.

Nafosat tarbiyasining asosiy maqsadi talaba-yoshlarda ma‘naviy jihatdan go‘zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san‘at asarlarini sevishni shakllantirish, tarix va me‘moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg‘otish, jonajon tabiatimizga ongli munosabatda bo‘lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlay bilish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir. Nafosat tarbiyasining asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda shuni qayd etish mumkinki, uning yordamida yosh avlodni Vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalariidan zavqlangan holdagi ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga erishish lozim bo‘ladi. Nafosat tarbiyasi yosh avlodning, ya‘ni talaba-yoshlarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan bo‘ladi. Nafosat tarbiyasining vazifalari uning asosiy maqsadini amalga oshirishdan iborat bo‘ladi. Bunda mustaqil respublikamizdagi ta‘lim-tarbiyani isloh qilish borasidagi sa‘y-harakatlar ham e‘tiborga olinmog‘i lozim.

Nafosat tarbiyasini samarali amalga oshirishda quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi: muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar, galereyalar, o‘tmish obidalari, tarixiy me‘morchilik yodgorliklari, san‘at asarlari va tarixiy madaniy joylar va hayot tarzimidagi borlig‘imiz hamda ulardagi go‘zalliklar talaba-yoshlarimizni estetik ruhda tarbiyalashga asos bo‘ladi.

Nafosat tarbiyasi vositalari – talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san‘at estetikasi va yoshlarning badiiy ijodi namunalari hamda yuqorida qayd etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san‘at asarlari va turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo‘shiq, boshqa musiqaviy harakatlar, tasviriy san‘at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagog-o‘qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda hayotdagi chiroy – bu axloqiy va nafosat tarbiyasining natijasidir. U badiiy adabiyotga jamlangan, tabiat, jamoat va mehnat unumdorligi,

odamlarning kundalik hayoti, o‘zaro munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Sher, Husanov B., Umarov E. Estetika. – Toshkent, 2000. – B.91.
2. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent, 2001. –B. 381-383.
3. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo‘jayeva G. Estetika asoslari. – Toshkent, 2013. –B. 138-139.